

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XORIJIY TILLAR FAKULTETI

“INGLIZ TILI LEKSIKASI” KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: Ilg'or pedagogik texnologiyalarni va ta'lim vositalarini
ingliz tili darslariga tadbiq etish**

Bajaruvchi:

Jo'raqulova Gulhayo

Ilmiy rahbar:

**“Ingliz tili leksikasi” kafedrası
o`qituvchisi D.X.ZOYIROVA**

NAVOIY-2014

Mundarija

| | |
|---|-----------|
| KIRISH..... | 3 |
| I. PEDAGOGIK FAOLIYATNI TEXNALOGIYALASHTIRISHNING IJTIMOY ZARURIYAT SIFATIDA O'RGATISHNI O'RGANISH | |
| 1.1. Pedagogik texnologiya nazaryasining ijtimoiy asoslari, g'oyalari va ta'lim vositalarini o'rganish | 7 |
| 1.2. Ta'lim jarayonida texnologik yondashuv mazmuni tamoyillari turlarini ishlab chiqish bosqichlari xususida..... | 18 |
| 1.3. Ta'limni tashkil etishga nisbatan innovatsion yondashuvlar mazmuni..... | 30 |
| II BOB. INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHI TALABALARNING TIL KO'NIKMALARINI O'STIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH METODIKASI | |
| 2.1. Ingliz tili darslarida zamonaviy pedtexnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirish metodi va vositalari..... | 33 |
| 2.2. Ingliz tili darslarida o'quvchilarning o'qish qobiliyatini o'stirish jarayonida zamonaviy pedtexnologiyalarni tadbiq etishning o'ziga xos jihatlari..... | 38 |
| 2.3. Ingliz tili darslarini ilg'or pedtexnologiyalar asosida tashkil etish..... | 43 |
| XULOSA..... | 48 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... | 51 |

KIRISH

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyasi Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997-yil 29-avgust)da qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Hozirda pedagog-olimlardan U. Nishonaliev, N.S. Saidaxmedov, N.N. Azizxodjaeva, Ziyamuxammedov, U. Tolipov, B.L. Farberman va boshqalar Respublikada pedagogik texnologiyalar muammolari bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib bormoqdalar, biz ham ularning ilmiy ishlari bilan yaqindan tanishdik va mavzuga doir adabiyotlarni o'rgandik.

A.Karimovning "Barkamol avlod - kelajak poydevori" nomli asarida hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga katta ahamiyat berishni aytib o'tgan: "Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir¹", - degan edi.

Mavzuning dolzarbligi. Ingliz tilini o'rganish hozirgi davr talabi ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga til o'rganishning yangi uslublarini, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga asoslangan holda ishlab chiqib, o'qish jarayoniga tavsiya etish olimlar, mutaxassislar oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Iste'dodli yoshlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk mutaxassislar bo'lishlari uchun, avvalambor chet tilini jumladan, ingliz tilini mukammal bilishlari zarur. Bunda esa darslarni zamonaviy ped texnologiyalar asosida tashkil etish va ko'plab Interfaol usullardan foydalanish davr talabidir.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi ingliz tili darslarida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish orqali ularning erkin nutqini ta'minlash va bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish usullarini ishlab chiqish, hamda ularni amalda qo'llay olish bo'yicha metodik tavsiyalar berish; bugungi kunda qo'llanilayotgan zamonaviy usullar, uslublar va o'qitish vositalari haqida ma'lumot berish orqali ularning erkin nutqini ta'minlash va bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish usullarini ishlab chiqish hamda ularni amalda qo'llay olish bo'yicha metodik tavsiyalar berishdan iborat.

Ishning metodik va nazariy asoslari. "Ta'lim tog'risidagi" Qonun, „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“, I.Karimovning „Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch“ , „Barkamol avlod orzusi“ asarlari, J.Jalolov, U.A.Hoshimov, I.Y.Yoqubov, A.M.Matoshkin, B.G.Ziyomuxamedov, B.L.Faberman, shuningdek, boshqa bir qator olim va metodistlar fikrlariga tayandik.

¹I.A.Karimov "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasida so'zlagan nutqi. – T.: Sharq, 1997. – 65 6.

Bitiruv malakaviy ishi quyidagi vazifalarni hal etishni rejalashtirgan:

- a) dars davomida o'quvchi – talabalarga o'qishni o'rgatish va uni boyitish jarayonlarini tashkil etish;
- b) dars davomida o'quvchi – talabalarga o'qishni interfaol usullardan foydalanib o'rgatish va o'z xato va kamchiliklarini mustaqil ravishda oldini olishga erishish;
- c) Tinglab tushunishni o'rgatish orqali ularning aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish.
- d) Ingliz tilini o'rganuvchi o'quvchi – talabalarga talaffuzni o'rgatish va ingliz tilida ravon gapirishini ta'minlash;
- e) Ingliz tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini o'stirish va rivojlantirish.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati shundaki, ushbu bitiruv malakaviy ishdan akademik litsey va kasb-hunar kollejarining ingliz tili o'qitish jarayonida foydalaniladi, bundan tashqari oliy o'quv yurtlari ingliz tili o'qitish metodikasi darslarida ham foydalanish imkoniyatini beradi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning obykti sifatida ingliz tili darslarida o'quvchilarining bilim saviyasini oshirishda qo'llaniladigan ta'lim vositalari ilmiy-nazariy ahamiyati o'tkazilgan tajribalar natijalariga asoslangan fikrlar o'rganildi. O'quvchilar bilim saviyasini oshirishda zaruriy va muhim usullari aniqlangan hamda o'quvchilar nutqida uchraydigan an'anaviy nuqsonlarning oldini olish metodikasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu mavzu bilan bog'liq bo'lgan ilmiy adabiyotlar, metodik qo'llanmalar o'rganilgan va tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishida pedagogika, psixologiya va o'quv predmetlari xususiy metodikalarida ijobiy deb tan olingan metodlardan foydalanildi. Tajribadan

muvaffaqiyatli o'tgan metodik tavsiya va turli o'quv-metodik qo'llanmalar va nazariy manbalardan tanqidiy-ijodiy foydalanildi.

Mazkur BMIda ingliz tili darslarida o'quvchilarining nutqiy ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi vosita va usullar metodikasi bayon qilindi.

I BOB. PEDAGOGIK FAOLIYATNI TEXNOLOGIYALASHTIRISHNI IJTIMOY ZARURIYAT SIFATIDA O`RGATISHNI O`RGANISH

1.1. Pedagogik texnologiya nazariyasining ijtimoiy asoslari, g'oyalari va ta'lim vositalarini o'rganish

XX asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz bergan inqiloblar davri sifatida joy oldi. Ilm-fan va texnika rivojining yuksak sur'ati moddiy ishlab chiqarish jarayonini nazariy (g'oyaviy) hamda amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishini ta'minladi. Xizmat ko'rsatish sohasining paydo bo'lishi, yangicha turmush tarzi kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining ortib borishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ehtiyojlarning yangilanib hamda ortib borishi o'z navbatida ularning qisqa muddatda va sifatli qondirilishini ta'min etuvchi faoliyatning yo'lga qo'yilishini taqazo etdi. Ijtimoiy zarurat mahsuli bo'lgan texnologiya sohasi va uning takomillashib borishi qisqa vaqt oralig'ida, kam jismoniy kuch sarflagan holda yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi. Moddiy ishlab chiqarish, xom-ashyoni qayta ishlash sohalari (qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqalar)da mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv an'anasi yuzaga keldi. Texnologik yondashuv ishlab chiqarish jarayonining umumiy tavsifini yoritishga xizmat qiladi. Muayyan mahsulotni ishlab chiqarish maqsadida xom-ashyoni tanlash (dastlabki bosqich)dan mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan (so'nggi bosqich) davrini o'z ichiga olgan jarayon texnologik jarayon sifatida e'tirof etiladi. Ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv muayyan sohalarda islohotlarni tashkil etish, ularning muvaffaqiyatini ta'minlash, erishilgan yutuqlarni boyitib borish kabi maqsadlarga erishishning samarali omili sifatida namoyon bo'ladi.

Moddiy ishlab chiqarish sohaslariga zamonaviy, ilg'or, yuksak texnologiyalarning tatbiq etilishi bir qator shartlar asosida kechadi, xususan, ilm-fan hamda texnikaning so'nggi yutuqlariga tayanish, yirik moliyaviy mablag'lar va yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega malakali mutaxassislarning mavjudligi bu boradagi yutuqlarni kafolatlaydi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalarida ilg'or texnologiyalarni qo'llash shartlaridan biri – malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishga erishish ekanligidan ham anglanadiki, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot bir-biri bilan uzviylik, aloqadorlik hamda yaxlitlik tamoyili asosida rivojlanib boradi. Jamiyat ijtimoiy hayotida yetakchi o'rin tutgan g'oya va qarashlar iqtisodiy ishlab chiqarish rivojiga o'z ta'sirini o'tkazsa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish aholining madaniy turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa hamda AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lim texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik (ta'lim) texnika(si)" tushunchasi o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, umumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir, deya baholandi.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor o'quvchilar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'yekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini "texnologiyalashtirish"ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi.

60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila

boshlandi. Dasturiy ta'lim o'quvchilarga muayyan bilimlarning alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQSHda faoliyat yurita boshlagan "Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan qo'mita" tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o'zgartirish majmuasini to'laligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi.

Shu o'rinda «pedagogik texnologiya» nazariyasining vujudga kelishi va rivojlanish tarixiga nazar tashlaylik:

Sho'rolar tuzumi davri- 30 yillarda «pedagogik texnika» tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'la boshladi va u o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. Shuningdek, bu davrlarda pedagogik texnika deb o'quv va laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50 yillarda esa o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi pedagogik texnologiyalariga tenglashtirildi.

60 yillar o'rtalariga kelib, bu tushunchalar mazmuni chet el pedagogik nashrlarida keng muhokamaga tortildi. 1961 yildan boshlab AQShda «Ta'lim texnologiyasi», Angliyada «Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim», Yaponiyada esa 1965 yillardan «pedagogik texnologiya» jurnallari chop etila boshlandi. 1971 yilda xuddi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

«Ta'lim texnologiyasi»ni nazariyasininig shakllanish bosqichlari

| № | Bosqichlar | Yillar | Ta'lim texnologiyasi |
|----------|-------------------|-----------------------|--|
| 1. | I- bosqich | XX asrning 30 yillari | TT+Pedagogik texnika-o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar |

| | | | |
|----|--------------|--------------------------|---|
| | | | yig`indisidir. |
| 2. | II- bosqich | XX asrning 50 yillari | TT+PT+ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig`imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, tinglovchi faoliyatini individuallashtirish |
| 3. | III- bosqich | XX asrning 60-80 yillari | TT+PT+TV+dasturiy ta'lim. Dasturiy ta'lim-tarbiya maqsadlarini aniqlanishi, ta'lim jarayonini umumiy loyihalash, tinglovchilar tomonidan nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi ehtimolini oldindan tashxislash, ta'lim maqsadining natijalanganligini o'rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish |
| 4. | IV-bosqich | Mustaqillik yillari | Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g`oyasi tashkil etadi. |

Ta'limjarayoninitexnologiyalashtirishnazariyasiningshakllanishiuzoqmuddatli vaqtoralig`idakechdi. Qator mamlakatlarda ta'lim texnologiyasi va uning muammolarini tadqiq etish gaa lohida e'tibor qaratildi.

Ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar tuzildi, maxsus jurnallarni nashr etildi:

Ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar hamda ilmiy jurnallar

| № | Mamla- katlar | Tashkilot nomi | Tashkil topgan yili | Jurnal nomi | Nashr etilgan yili |
|----------|--------------------------|---|--------------------------------|--|-----------------------------------|
| 1 | AQSH | Ta'lim kommunikatsiyasi Assotsatsiyasi | 1971 | “Ta'lim texnologiyasi” “Educational Technology” | 1961 |
| 2 | Angliya | Pedagogik ta'lim Milliy Kengashi | 1967 | “Ta'lim texnologiyasi va dasturli ta'lim” | 1964 |
| | | | | “Ta'lim texnologiyasi” | 1970 |
| 3 | Yaponiya | 4 nomda ilmiy jamiyatlar faoliyat olib bormoqda | 1965-70 | “Ta'lim texnologiyasi” | 1965 |
| | | | | “Ta'lim texnologiyasi sohasidagi tadqiqotlar” | 1965 |
| 4 | Italiya | | | “Ta'lim texnologiyasi” | 1971 |

Yuqoridan omlari keltirilgan tashkilot hamda ilmiy jurnallar faoliyatining asosiy mazmuni ta'lim texnologiyasi muammolarini bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar mazmuni va natijalarini umumlashtirib, tahlil etib borish, shuningdek ushbu tadqiqotlar natijalarining tahlil asosida muayyan tavsiyalarni ishlab chiqish, eng samarali tadqiqotlarni ommalashtirishdan iboratdir. Ta'lim texnologiyasining mohiyati, uning yutuqlarini bilan ta'lim sohasi xodimlarini xabardor etib borish,

ularningbuboradagimalakalarinioshirishgayo'naltirilganfaoliyatnitashkiletishhamta'limtexnologiyasimuammolarinitadqiqetuvchitashkilotlarzimmasidadir.

MustaqilliksharoitidaO'zbekistonRespublikasita'limmuassasalarifaoliyatijarayoni gayangipedagogiktexnologiyalarniolibkirishgaqaratilganharakatbirqatoryetakchitashkilotartomonidanolibborilmoqda.Xususan, AXELS, IREX, JICAhamdaKOICAkabitashkilotartomonidanolibborilganfaoliyato'ziningamaradorligibilanalohidaahamiyatkasbetmoqda.


So'nggibeshyillardavomidayuqoridanomlarikeltirilgantashkilotlarningko'magivarag'batiasosidaRespublikaningbirqatoryetakshiolio'quvyurtlariqoshidainnovatsion (pedagogiktexnologiya) markazlar(i) tashkiletildi.

Mazkurmarkazlartomonidantashkiletilganilmiyseminar, qisqavauzoqmuddatlikurslardaoliyo'quvyurtlari, akademiklitseylar, kasbhunarkollejlarihamdaumumiyo'rtamaktablarningpedagogikxodimlariishtiroketib, pedagogiktexnologiyavaundanta'limjarayonidafoydalanishborasidaginazariyvaamaliybilimlargaegabo'ldilar.

Rivojlanganmamlakatlardata'limtexnologiyasiborasidakattatajribato'planganbo'lib, aynivaqtdaulardansamaralifoydalanibkelinmoqda.O'zbekiston Respublikasida ham bu borada muayyan tajribalar to'planayotgan bo'lsada, biroq bir qator muammolar ham mavjud.

Ta'limtizimigapedagogiktexnologiyalarnisamaralijoriyetishyo'lidagimuammolar

| | | | |
|---|--|---|---|
| Ta'lim texnologiyasi g'oyalarining ta'lim jarayoniga to'laqonli tatbiq etilishi uchun mintaqaviy ichki imkoniyatlarni puxta o'rganish | Xususan fanlarning o'qitilishi jarayoniga ilg'or texnologiyalarni joriy etish choralarini belgilash, zarur shart-sharoitlarni yaratish | Barcha turdagi ta'lim muassasalarining pedagog xodimlarini qayta tayyorlash, ularning ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish malakalarini oshirish | Nazariyaning yagona nom bilan nomlanishiga erishish (pedagoglar o'rtasida muayyan tushunmovchiliklar paydo bo'lmoqda) |
|---|--|---|---|



Mazkur muammolarni ijobiy haletilish ta'lim-tarbiya jarayonlarida muayyan samaradorlikka erishish bilan bir qatorda barkamol shaxs va ma'lum mutaxassisni tarbiyalashga imkon beradi.

Ilmiy texnika taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko'plab ishlab chiqarish sohasida itexnologiyalashtirishga sabab bo'lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, bilimlarga umumiy sohalariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalarini haqida gapiramiz, shu jumladan ta'lim sohasida ham. Pedagogik texnologiyada boshqariladigan ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish, ta'limdagi o'zlangan natijalarga erishishga bo'lgan pedagogikaning yo'nalishiga aytiladi.²

“Pedagogik texnologiya” so'z birligi – bu inglizcha **“an educational technology”** – **“ta'lim texnologiyasi”** iborasining aniq bo'lmagan tarjimasidir. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi oxirgi paytlarda o'qitish nazariyasida yanada kengroq qo'llanilmoqda. Aynan “texnologiya” termini va uning “o'qitish texnologiyasi”, “ta'lim texnologiyasi”, “ta'limda texnologiya” kabi shakllariga pedagogic adabiyotlarda 300 dan ortiq ta'riflar berilgan.

“Pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo'yicha ishlarda XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyatushunchasida turlicha ifodalashlar mavjud.

²(M. Klarin, 1989)

1. Texnologiya – bu bir ishda, mahoratda, san’atda qo’llaniladigan uslublar to’plamidir.³
2. Pedagogik texnologiya – bu o’quv jarayonini amalga oshirishning texnikasidir.⁴
3. Pedagogik texnologiya – bu o’qitishda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonini tasvirlashdir⁵
4. Pedagogik texnologiya – bu o’qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus to’plami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko’rsatmalar yig’indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir⁶.
5. Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini optimallashtirish masalani qo’yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o’zaro munosabatlarini hisobga olib o’qitish va bilimlar o’zlashtirish butun jarayonini yaratish, qo’llash va belgilashga sistemali yondashishidir⁷
6. Texnologiya – bu san’at, mahorat, moxirlik, ishlab chiqish metodlar to’plami, holatini o’zgartirishdir⁸.
7. O’qitish texnologiyasi - bu o’quvchilar va o’qituvchilar uchun so’zsiz qulay sharoitlar yaratib berish uchun o’quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va olib borish bo’yicha har tomonlama o’ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir⁹
8. Pedagogik texnologiya – bu pedagogikada fikrlashning sistemali usulidir.¹⁰
9. Pedagogik texnologiya – o’quv jarayonining tashkiliy shakli, metodlari,

³(izohli lug’at).

⁴(V.P. Bepalko).

⁵(I.P. Volkov).

⁶(B.T. Lixachev)

⁷(YuNESKO).

⁸ (V.M. Shepel).

⁹ (V.M. Monaxov)

¹⁰(T. Sakamoto).

mazmunini o'zgartiruvchi uning rivojlanish sistemasidir¹¹.

10. Pedagogik texnologiya-pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan hamma shaxsiy, instrumental va metodologik vositalar sistemali to'plami va ishlatilishi tartibini bildiradi (M.V. Klarin).

11. Pedagogik texnologiya – bu ta'lim maqsadiga erishishga qaratilgan o'qituvchi va o'quvchining faoliyatini sistemali, konseptual, qoidal, ob'ektivlashtirilgan, invariant tasvirlashdir (F.A. Fradkin).

12. Pedagogik texnologiya bilimlarni egallashda rejalashtirish, boshqarish va ta'minlashni tahlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlarning g'oyalari, vositalarini o'z ichiga oluvchi kompleks integral jarayon demakdir (Pedagogik kommunikativlar va texnologiyalar bo'yicha AQSh assotsiatsiyasi).

Pedagogik davrlar va texnologiyalarning rivojlanish tarixi xususida

Pedagogika fani tarixidan ko'rinib turibdiki o'qitish va kadrlar tayyorlashning yanada mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davometib kelgan. O'qitish – bu jamiyat taraqqiyoti uchun samarasi pedagogning faoliyatini kunlanishi bilan darhol ko'rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir. Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishi qarab farq qilmaydi. Ana shu nuqtai nazardan biz ijtimoiy tarixda mavjud bo'lgan "pedagogik davrlarni" ko'rib chiqamiz:

I. Individual pedagog, qo'l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyatidavri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha);

II. Yozuv kitobi davri (XVII asrdan hozirgi davrgacha);

III. Audiovizual vositalar davri (XX asrning 50-yillari).

¹¹(E. Bistereki va J. Ijeller).

IV. O'qitishni boshqarishni avtomatlashtirish oddiy vositalari davri (XX asrning 70-yillari).

V. Zamonaviy hisoblash mashinalari asosida ta'limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri kompyuterda o'qitish).

XX asrda pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi haqida

XX asr oxiriga kelib ilmiy-texnik taraqqiyot faqatgina ishlab chiqarishni texnologiyalashtirishga olib kelib qolmay, balki madaniyat doirasi, bilimlarga umumiy sohalariga ham keskin kirib keldi. "Texnologiya" tushunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug'atlar talqini bo'yicha (techne san'at, hunar, fan; logos – tushuncha, ta'limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to'plamidir. Texnologiya shu bilan birga jarayonni bilish san'atini ham o'z ichiga oladi. Texnologik jarayon har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanish bilan operatsiyalar ma'lum ketma-ketligini ko'zda tutadi. Texnologiya professional mazmunda "qanday qilib, nimadan va qaysi vositalar bilan bajarish kerak?" degan savolga javob beradi.

XX asrning 20-yillarida "pedagogik texnologiya" termini birinchi bor pedagogika bo'yicha asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o'zida yana bir boshqa – "pedagogik texnika" termini ham tarqaldi. U pedagogik ensiklopediyada 30-yillarda o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. Pedagogik texnologiyalarga o'quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish mahoratlari ham kiritilgan.

60-yillar o'rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSh, Angliya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Vengriya) uni talqin qilish ikki yo'nalishi belgilandi.

Birinchi yo'nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o'qitish vositalarini qo'llash zarurligini ta'kidladilar (technology in education).

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari esa o'quv jarayonini tashkil etishsamaradorligini oshirish va pedagogik g'oyalarning texnikaning keskinrivojlanishidan ortda qolishini yo'qotishni muhim deb hisobladilar. Shundayqilib 1-yo'nalish "O'qitishda texnik vositalar" sifatida belgilandi, birozkeyinroq yuzaga kelgan 2-yo'nalish "o'qitish texnologiyasi" yoki "o'quv jarayonitexnologiyasi" sifatida belgilandi.70-yillarning boshlarida turli xildagi o'quv uskunalarini va o'quvvositalarini modernizastiyalashtirish zarurligi anglab etildi. Bularsizo'qitishning sifatlilik va samaradorligiga erishib bo'lmas edi.60-yillar o'rtalari va 70-yillarning boshlarida AQSh, Angliya, Yaponiya,Italiya kabi yuksak rivojlangan davlatlarda pedagogik texnologiyalar masalalaribilan shug`ullanuvchi jurnallar nashr etila boshlandi, keyinchalik bu muammobilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shug`ullana boshlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiyalarmarkazlari haqida

AQShda 1971 yil – "Pedagogik kommunikastiyalar va texnologiyalar bo'yichaAQSh Assostiastiyasi" tuzildi. Hozirgi kunda mamlakat bo'ylab va Kanadada bukengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQSh da 1961 yilda "Pedagogiktexnologiya" jurnali (Educational Technology), 1971 yilda esa – "Audiovizualo'qitish" jurnali nashr etila boshlandi.

Angliyada 1967 yil - Pedagogik texnologiya bo'yicha Milliy kengash 1964yildan boshlab "Pedagogik texnologiya va o'qitishni dasturlashtirish"(Educational Technology progratted tearning) jurnalini, 1971 yilda – "Pedagogiktexnologiya" jurnalini nashr eta boshladi.

Yaponiyada - Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiytashkilotlar shug`ullanadi.1967 yilda "Pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliykengash" tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlaridajoylashtirilgan. 1965 yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda "Pedagogiktexnologiya" jurnali va ingliz tilida yiliga ikki marta "Pedagogiktexnologiyalar sohasida tadqiqotlar" jurnali nashr etiladi. Yaqinda "Pedagogiktexnologiyalar bo'yicha umumyapon Markaziy kengashi" tashkil etildi, u muammolarbo'yicha xalqaro aloqalar o'rnatish bilan ham shug`ullanadi.

Italiyada – 1971 yili pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy markaztashkil etildi va "Pedagogik texnologiyalar" jurnali nashr etiladi.

Vengriyada - 1973 yili o'qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi.

O'qitish texnologiyasi bo'yicha Xalqaro seminarda (Budapesht, 1977) olim S.G.

Shapovalenko o'qitish jarayonining uchta texnologik prinsiplarini ko'rsatdi:

1. Bilim va texnikani mukammal egallash.
2. Audiovizual materiallari fondi bilan tanishish.
3. Ulardan samarali foydalanish metodikasini bilish, shu jumladan ijodiyondoshishi rivojlanishi ham.

Vengriya olimi L. Salai "o'qitish texnologiyasi" tushunchasiga rejalashtirish, maqsadlarni taxlil qilish, o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonini ilmiy tashkil etish, samaradorligini oshirish maqsadida eng muhim vosita va materiallarni tanlashni kiritib o'qitish jarayonini tashkil etuvchilarni doirasini anchakengaytirdi. E. Bisterski va J. Stellerlar (AQSh) to'plangan ma'lumotlar bo'yicha o'qitish texnikasi faqatgina yordamchi vosita va yangi sistemadan iborat bo'libgina qolmay, balki o'qitish jarayoni tashkiliy shaklini, metodi va mazmunini o'zgartiribuning rivojlanishida katta rol o'ynadi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilar va o'quvchilarni pedagogik fikrlashlariga katta ta'sir ko'rsatdi.

Rossiya XX asrning 90-yillarida pedagogik texnologiyalar bo'yicha Markaz tashkil etildi, "Maktab texnologiyasi", "Ta'limda innovatsiyalar" jurnallarini nashr etiladi.


O'zbekiston 1997 yili kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan boshlab ta'lim tizimida, pedagogik nashrlarda pedagogik texnologiyalar muammolari dolzarb tadqiqotchilik ob'ektlari sifatida ko'tarila boshlandi. 1999 yilda Respublika ta'lim Markazi qoshida pedagogik texnologiyalar bo'yicha Markaz tashkil etildi. "Ta'lim texnologiyalari", "Ta'lim muammolari" kabi jurnallar nashr etila boshlandi, pedagogik texnologiyalar muammolari bo'yicha maqolalar "Xalq ta'limi", "Pedagogik ta'lim", "Ta'lim va tarbiya" jurnallarida, "Ma'rifat", "O'qituvchilar gazetasi" va boshqa ilmiy-

pedagogiknashrlarda bosilib chiqarilmoqda.1994 yili pedagogik texnologiyalar muammolari bo'yicha 1-Respublika ilmiy-nazariy konferenstiyasi o'tkazildi, ma'ruzalar va hisobotlar materiallari maxsusto'plamda chop etildi.

1.2.Ta'limjarayonidatexnologikyondashuv mazmuni,tamoyillariturlarini ishlabchiqi shbosqichlarixususida

Insoniyatsivilizatsiyasining quyibosqichlaridashaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berish, g'ayoni naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablarasosidatashkiletigan bo'lsa, bugungi kungakelib ta'lim jarayonini tashkiletishganisbatano'taqat'iy hamdamurakkab talablarqo'yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlayoladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'la qonli anglashimkoniyatiga egafavquloddaro'y beruvchi vaziyatlardahamyuzagakelgan muammolarni ijobiy haleta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashgabo'lgani ijtimoiy ehtiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondashuvasosidatashkiletishni taqazo etmoqda.

Shuboi ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlik darivojlanib borayotgan pedagogika fanining vazifalaridoirasikengayib bormoqda. Tabiiy ravishdazamonaviy fan-texnika yutuqlaridansamaraliva unumli foydalana olish vazifasimazkur fan oldigahamqo'yilganidir.



Aynivaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tez korsur'atda qabul qilib olish, ularni tashkiletish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchi g'ayetkazib berishni yo'lga qo'yishta'lim tizimi oldidaturgandolz arbmuammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qaydetilgan dolda arz muammoni ijobiy haletishga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda ko'p mamlakatlar, shu jumladan respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida ham turlicha nomlangan texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarning barchasi ma'lum umumiylikka ega bo'lib, ular xususiy jihatlariga binoan tasniflanishi V.S.Kukushin., G.K.Slevko., G.Berdiev kabi ko'plab olimlar tomonidan ko'rsatilgan bo'lib, ularni sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.

Shu bilan bir vaqtda hozirgi paytda amaliyotda quyidagicha nomlangan pedagogik (ta'lim) texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanilib ijobiy natijalar olinmoqda.

1. Individual ta'lim texnologiyasi
2. Jamoaviy ta'lim texnologiyasi.
3. Belgi-kontekstli ta'lim texnologiyasi
4. Ishbilarmonlik yoki rolli o'yin ta'lim texnologiyasi.
5. Muammoli ta'lim texnologiyasi.
6. Axborot ta'lim texnologiyasi.
7. Dasturli ta'lim texnologiyasi.
8. Integrativ ta'lim texnologiyasi.
9. Modulli ta'lim texnologiyasi.
10. Mualliflik ta'lim texnologiyalari.
11. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.
12. Tayanch sxemalaridan foydalanib o'qitish texnologiyasi.
13. Masofaviy ta'lim texnologiyasi.
14. Etnopedagogik ta'lim texnologiyasi.
15. Faol ta'lim texnologiyasi.
16. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi.
17. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi.
18. Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi.
19. An'anaviy ta'lim texnologiyasi.
20. Baholamasdan va yo'qlama qilmasdan o'qitish (erkin ta'lim) texnologiyasi.
21. Asosiy materiallarni ajratib olib o'rganish texnologiyasi.
22. Yiriklashtirib o'qitish texnologiyasi.

23. Politexnik ta'lim texnologiyasi.
24. Jadal ta'lim texnologiyasi.
25. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi.
26. Ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etib boshqarish texnologiyasi.
27. Erkin ta'lim texnologiyasi.
28. Baholamasdan va yo'qlama qilmasdan o'qitish texnologiyasi.
29. Sirtqi ta'lim texnologiyasi.
30. Eksternat ta'lim texnologiyasi.
31. Keys-stadi texnologiyasi
32. ECTS kreditlari

«**Texnologiya**» - yunoncha «**techne**» so'zidan olingan bo'lib, **mahorat, san'at** va «**logos**» - so'z, **ta'limot** ma'nosini anglatadi.

Texnologiya- jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yig'indisi, shuningdek ob'ektda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlar tushiniladi.

B.Ziyomuxammadovning fikricha - ma'ruzachi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi. «Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», - deydi V.M.Manaxov¹².

M.V.Klarin fikricha, pedagogik texnologiya - o'quv jarayoniga yondoshgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib o'quv jarayonini loyihalashdir.

¹²Manaxov

I.Ya.Lernerning fikriga ko'ra, pedagogik texnologiya - tinglovchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi.

V.P. Bepalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan N.Sayidaxmedov va A.Ochilovlarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu ma'ruzachi (tarbiyachi)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayonidir.

O'zbekistonlik pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: «Pedagogik texnologiya - ta'lim jarayoniga yangicha yondoshuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir»¹³.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik texnologiyaga berilgan boshqa ta'riflar ham keltiriladi, bizningcha, eng maqbuli YuNESKO ta'rifidir.

“Pedagogik (ta'lim) texnologiya”(si) – ta'lim-tarbiya va shaxsni rivojlantirish jarayonlarini maqbullashtirish maqsadida inson va texnika iimkoniyatlari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olib tinglovchilarda bilim, ish-harakat usullari va ijobiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda tutuvchi loyihalashtirish, tatbiq etish (amalga oshirish), natijalarni maqsad bilan qiyoslab kerakli tuzatishlarni kiritish bosqichlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tizimdir.

Ta'lim texnologiyasini ishlab chiqarish texnologiyasidan kelib chiqqan holda uch xil atamasi mavjud:

Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Texnologiyalarni barcha, boshqa tushunchalarini belgilash uchun, sinonim sifatida - ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabilarni ishlatish mumkin.

¹³B.L.FARBERMAN

O'qitish texnologiyasi - birinchidan, pedagogik texnologiyani jarayonli - harakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi, usul va vositalar (texnologik operastiyalar)ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni;

ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-bayonli aspektini ifodalaydi. Bu, maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatini loyihasini bajarishni bayonidir (texnologik xarita).

Ta'lim texnologiyasi - pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu (fan predmeti), «texnik va inson resurslarini hamda ularni, o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli»¹⁴

«**TA'LIM TEXNOLOGIYASI** – ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash **TIZIMIDIR**».

TIZIM deb tartiblangan, o'zaro uzviy bog'langan va birgalikda umumiy funkstiyani bajaruvchi elementlar to'plamiga aytiladi.

¹⁴Gurrey P., Teaching English as a Foreign Language, L., 1955.

An'anaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari.

Afzalliklari:

- ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali;
- ma'ruzachi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi;
- vaqtdan unumli foydalanish;
- aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

Kamchiliklari:

- tinglovchilar nafaol ishtirokchi bo'lib qoladilar;
- ma'ruzachining to'la nazorati barcha tinglovchilar uchun motivastiyani vujudga keltirmaydi;
- tinglovchilar ma'ruzachi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;
- eslab qolish darajasi hamma tinglovchilarda bir-xil bo'lmaganligi sababli, gurux bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin;
- mustaqil o'rganish va echimlar qabo'l qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Zamonaviy (noa'anaviy) ta'limning afzalliklari va kamchiliklari.

Afzalliklari:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- o'z vaqtida qaytar aloqalarning ta'minlanishi;
- tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi;
- motivastiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- o'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;

- o'z-o'zini baholashning o'sishi;
- tinglovchilarning fanga oid mavzu mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati;
- mustaqil fikrlay oladigan tinglovchining shakllanishiga yordam berishi;
- nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirishi;
- muammolar echish ko'nikmalarining shakllanishi.

Kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etilishi;
- tinglovchilarni har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi;
- juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham ma'ruzachi rolining past bo'lishi;
- ma'ruzachining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar echish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari

Ta'lim jarayonini bir tizim deb qaraydigan bo'lsak, uni tashkil etuvchilari, ya'ni elementlariga quyidagilar kiradi:

- o'quv maqsadi;
- aniq maqsadlar (kutilayotgan natijalar);
- ta'lim beruvchi;
- ta'lim oluvchi;
- ta'lim mazmuni;
- ta'lim metodi;
- ta'lim shakli;
- ta'lim vositalari;
- nazorat va baholash.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda yuqorida sanab o'tilgan elementlardan birortasi e'tibordan chetda qolsa yoki noto'g'ri tanlangan bo'lsa tizim ishlamaydi, demakki, ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga erishilmaydi.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TURLARI

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining dolzarbligi

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishni, jamiyatning ma'naviy yangilashini ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Zamonaviy bozor iqtisodining shakllanishi korxonalar orasidagi raqobat asosida, xalq xo'jaligini barcha tarmoq va zvenolarning keskin rivojlanishini taqozo etadi. Chunki bozor iqtisodiyotini raqobatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Korxonalar orasidagi raqobat o'z navbatida, fan -texnika va texnologiyani, ya'ni ilmiy texnika taraqqiyotining (ITT) jadallashuviga olib keladi.

ITT ning jadallashuvi, hayotning barcha sohalarida tubdan isloh qilinishi natijasida jahon hamjamiyatiga qo'shilish imkoniyatini beradi.

Bu yerda ham birinchi qatorda qo'yilgan masalalarni hal qila oladigan kadrlarni tayyorlash muammosi kelib chiqadi.

Shuning uchun ham respublikamizda "Ta'lim to'g'risida" gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi " qonunlari qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi-ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir¹⁵.

¹⁵Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi

Rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, quyidagi shartlar asosida amalga oshirilishi lozim:

Birinchi - ITT ning hozirgi zamon holati ilm-fanning yuksalib borayotgan roli bilan belgilanadi.

XX asrda, ayniqsa uning ikkinchi yarmida ilm-fanning rivojlanish tezligi sur'ati oshdi. Oxirgi, har 10-15 yil ichida ilmiy faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari 2 marta oshib bormoqda. XX asrning ikkinchi yarmida olingan ma'lumotlar insoniyatning to'la tarixi davomida to'plangan bilimlarini katta qismini tashkil etdi.

Shuning uchun ilm-fan rivojining asosiy qonuni eksponensial qonun hisoblanadi. Hozirgi paytda ilm-fan rivojining yuqori sur'atlari aqliy mehnatning borgan sari avtomatlashtirilishi tufayli amalga oshmoqda.

Ilm-fan rivojining jadallashuvi ilmiy texnikaviy axborotning jadal o'sishiga va tez-tez yangilanishiga olib keladi. Ilm-fan rivojining eksponenti qonun bo'yicha rivoji uning shiddatli o'sishini anglatadi. Demak, ilmiy-texnikaviy axborot o'sish ham, shiddatli jarayon hisoblanadi. Jahonda har yili minglab kitoblar, jurnallar chop etiladi va o'n minglab dissertastiyalar himoya qilinadi.

Axborotning yuksalib borayotgan shiddatli oqimi tezligini ta'minlash maqsadida zamonaviy telekommunikastiyali axborot tizimlari qo'llanilmoqda.

Ko'rib turganimizdek, ilm-fan axborotining hozirgi zamon o'sish tezligi va hajmi ularning o'tgan 15-30 yildagi holatida keskin farq qiladi.

Ilm-fan rivoji, bu ma'lumotli mutaxassislarning faoliyat doirasidir. Shuning uchun oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash tizimi, ularning o'ta iqtidorlilariga zamonaviy axborot oqimini o'zlashtirishga, ilmiy tekshirish faoliyati individual va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, ilmiy-texnikaviy axborot va o'quv ilmiy adabiyot bilan ijodiy ishlay olishlariga imkoniyat berishi lozim.

Ikkinchi –hozirda zamon fanining shiddatli rivoji ikki, uch va o'ndan ortiq fanlarni ulanishlarida yangi turdagi fanlar paydo bo'lishi bilan ham ta'minlanadi. Masalan: biofizik, biogeokimyo, informatika, fizikokimyoviy mexanika va hokazo. Fan

daraxti hosil bo'ladiyu, ma'lum fanlar ulanishlarida tug'ilgan yangi fan-bu yangi yo'nalishlar, muammolar, mavzular va ilmiy masalalar demakdir. Bu masalalarni oliy maktabning iste'dodli bitiruvchilari hal etishi lozim.

Shuning uchun kadrlar tayyorlashni zamonaviy tizimi, ularda o'ziga xos va nostandart fikrlash qobiliyatini o'stirishi, o'z ustida doimiy ravishda chidam va matonat bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish lozim.

Tahsil oluvchi hayratlana olishi, mag'rurlana olishi lozim, faqat shundagina u boshqalarni o'zining ijodiy ishi bilan hayratga solishi mumkin.

Uchinchi-fan-texnikaning tezkor rivojlanishi, ilmiy-texnikaviy axborotning shunga o'xshash axborot uzatish va qayta ishlash tezligini oshirishga olib keladi, buning asosida esa hisoblash texnikasi yotadi. Ta'limni individuallashtirmasdan, zamonaviy informastion tizimlardan foydalanishni ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin emas. Shuning uchun «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da «**o'qitishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distanstion ta'lim texnologiyasi va vositalarni ishlab chiqish va o'zlashtirish**» vazifasi qo'yilgan. Bu oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimlarida birdek dolzarb hisoblandi.

To'rtinchi –ITT xususiyati muhandislik yechimlar turini keskin oshishi, materiallarning tez-tez almashinuvi, texnologik jarayonlar, mashinalar konstrukstiyasi, boshqarish tizimlarining avtomatlashtirish darajasining oshishi, ilmiy yutuqlar natijasini ishlab chiqarishga tatbiq etish muddatlarini kamayishi hisoblanadi. Masalan, telefon aloqasining ixtiro qilinishi bilan uni amalga oshirish orasida 56 yil o'tgan bo'lsa, radio uchun 35 yil, televizor uchun 14 yil, atom energiyasi uchun 6 yil, tranzistor uchun 5 yil o'tdi. Hozirgi paytda esa bu muddatlar odatda bir yildan oshmaydi.

Shuning uchun mutaxassislar tayyorlovchi barcha tizimlar bir tomondan ulardan uzluksiz o'zgarib turadigan ishlab chiqarish texnika va texnologiya sharoitida zudlik bilan moslashuvni shakllanishiga yo'naltirilishi, ikkinchi tomondan ular bilimining harakatchanligi, tanqidiy fikrlashuv kasbiy faoliyatida ijodiylik va moslashuvchanlik kabi xislatlarga ega bo'lishi zarur. Bu esa zamonaviy muhandis va ishchining qiyofasidir.

Beshinchidan, jadallashayotgan ITTning ortib boradigan talablariga to'la javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash uchun o'qitishni jadallashtirish, inson organizmining butun imkoniyatlarini, uning ongini o'qitishda ishga solish zarur. Bu esa o'quv jarayonida axborot berilayotganidan, o'quv televideniya bilan foydalanishni taqozo etadi.

Oltinchidan-har qaysi odam tug'ilganidan boshlab alohida individium hisoblanadi, ya'ni har kimning o'ziga xos aqliy rivojlanishi, ta'lim olishga qobiliyati bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda, zamonaviy o'qitish tizimining vazifasi insonning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinib turganidek, kadrlar tayyorlashning hozirgi predmetli (fanlar) tizimi pog'onama-pog'ona, uzluksiz isloh qilinishi lozim.

Bu tizim fanlar orasida sun'iy to'siqlarni saqlab qolib, zamonaviy kasbiy ta'lim ehtiyojlariga tobora kamroq javob bermoqda. Bu masalalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan, zamonaviy talablarga ko'proq moslashgan o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari, jumladan, kadrlar tayyorlashning modul tizimidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bunga alohida e'tibor qaratilgan, unda ta'kidlanganidek, «yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish» lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari, bu kasbiy ta'limning hozirgi kuni va uning kelajagidir.

Avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining mohiyati

O'qitish jarayonida, pedagog texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan o'quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnika taraqqiyot jadallashgan davrda o'qitish samaradorligi, asosan, tinglovchining o'qitish jarayonidagi o'rni, pedagogning unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda o'qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan.

Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi, talablar esa faqatgina «ob'ekt» vazifasini bajaradi, xolos. Bunda tahsil oluvchining

tashabbusi va mustaqilligi yo'qoladi, o'qitish majburiy yo'sinda amalga oshiriladi. Odatdagi an'anaviy o'qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, avvalo A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika prinsiplariga asoslangan o'qitishning guruh-dars tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hanzugacha dunyoda eng ko'p tarqalgan o'qitishning guruh-dars tizimi, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo'lgan talablar asosida guruhni (guruhni) tashkil etadi;

- guruh (guruh, oqim) yagona o'quv reja, yagona o'quv dasturlar va yagona mashg'ulotlar jadvali bilan shug'ullanadi;

- mashg'ulotlarning asosiy birligi dars bo'lib, u bitta fanga, bitta mavzuga bag'ishlanadi va ma'ruzachi tomonidan boshqariladi;

- o'quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo'llaniladi.

An'anaviy o'qitish asosan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning rivojlanishini ko'zda tutmaydi.

An'anaviy o'qitish asosini, Ya.A. Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika prinsiplari tashkil etadi:

- ◆ ilmiylik;

- ◆ tabiatga monandlik(o'qitish rivojlanish bilan belgilanadi, ammo shakllanmaydi);

- ◆ uzviylik va tizimlik;

- ◆ o'zlashtiruvchanlik (ma'lumdan noma'lumga, soddadan murakkabga)

- ◆ mustahkamlik (takrorlash, takrorlash....)

- ◆ onglilik va faoliyat (qo'yilgan maqsadni bilgan va buyruqlarni bajarishga faol bo'lgan)

- ◆ nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;

◆ yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish;

An'anaviy o'qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo'ravonlik pedagogikasi, o'qitishning tushuntiruv ko'rgazmali usuli, ommaviy o'qitish. An'anaviy o'qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo'ladi: tahsil oluvchi bu hali to'la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa –bu sardor, hakam, yagona tashabbuskor shaxs.

Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarning mohiyati vapriinsiplari

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy prinsiplar xos bo'ladi:

- *insonparvarlik*, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'ravonlikdan to'la voz kechish;
- *hamkorlik*, ya'ni pedagog va tinglovchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
- *erkin tarbiyalash*, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish.
- Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda tinglovchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:

- pedagogik jarayonda shaxs ob'ekt emas, sub'ekt hisoblanadi;
- har bir tinglovchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;
- yuqoriyetuk qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tinglovchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish,
- tinglovchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo'l qo'yish huquqi;
- o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi
- pedagog va tahsil oluvchi munosabatining asosi: ta'qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontrish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni,

hozirgi zamon sharoitida samarali natijaber maydigan va g'ayri

insoniy hisoblanadigan majburlash pedagogikasi dan voz kechishdir. Umuman olganda tarbiya jarayonida majburlashdan voz kechish mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda so'zsiz itoatkorlik xususiyatlarini shakllantiradi.

Erkin o'qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

- ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;
- o'quv materialiga qiziqish uyg'otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag'batlantirish;
- tinglovchilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;
- jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta'minlash.

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta'lim tizimida o'quv fanidan tinglovchiga emas, tinglovchidan o'quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, tinglovchilarning mavjud imkoniyatlarini inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo'ladi.

Individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

- o'rtacha tinglovchiga yo'naltirishdan voz kechish;
- shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;
- shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.

Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo'ladi:

- har bir tinglovchi qiyofasida noyob shaxsni ko'rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha tinglovchilar iste'dodli degan ishonch bo'lishi kerak.
- shaxsga yutuqni ma'qullovchi, qo'llab - quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya'ni o'qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak;
- bevosita majburlashga yo'l qo'ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg'u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik;
- pedagogik jarayonda, tinglovchilarga o'zqobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko'maklashish.

Oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimi uchun o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

ishbilarmonlik o'yinlari; muammoli o'qitish; tabaqalashtirilgan o'qitish; dasturlashtirilgan o'qitish; kompyuterlashtirilgan o'qitish; modulli o'qitish.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jadallashtirilgan davrda rivojlangan davlatlarda shakllantirilganligini inobatga olgan holda ular chuqur ildizlarga ega ekanligini ta'kidlash to'g'ri bo'lar edi. ***Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar insonning aqliy qobiliyatlarini ochishiga xizmat qiladi.***

1.3. Ta'limni tashkilotishgan nisbatan innovatsion yondashuvlarning mazmuni

Ta'limni tashkilotishgan nisbatan innovatsion yondashuvlarning mazmuni haqida so'z borar ekan, avvalambor pedagogik texnologiyani metodikadan farq qilish haqida ma'lumot berish gavaundagi muammolarni ochishga harakat qildik.

Hozirgi kundagi pedagogik texnologiyaga haqida ganiqtushuncha avasavvurlar ko'p bo'lsa, unixususiy metodikalar bilan tenglashtirish hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo'lib, quyidagilar haqida qisqacha bayon qilinadi.

Pedagogik texnologiya – o'quvchining mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Metodika – o'qituvchining bilimi, ko'nikmasi, mahorati, shaxsiy sifatлари, temperamentiga bog'liq bo'lib, ma'lum shaxs o'qituvchi uchun qulay bo'lgan o'qitish usullari va yo'llarini majmuadir. U alohida metodikalarga ajratiladi. Pedagogika fanini o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetik metodikasi va shukabilar. Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amaldaharikkisidan unumli foydalanish talab etiladi. Ular orasidagi farqlar quyida batafsil bayon qilingan.

1. **Pedagogik texnologiya** – insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.
2. **Metodika** – ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi.
3. **Pedagogik texnologiyaning maqsadi**- komil insonni shakllantirish
4. **Metodika** esa o'z oldiga alohida o'quv fanlarini o'qitish va tarbiyaviy ishlarining sifatli bo'lishini ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan.
5. **Pedagogik texnologiyadan** barcha ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash mumkin.
6. **Metodikadan** esa xususiy fanlarni o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda foydalaniladi.
7. **Pedagogik texnologiyaviy vositalari** barcha ta'limiy va tarbiyaviy vositalarini o'z ichiga oladi.

8. **Metodika** esa xususiy metodikalar alohida o'quv fanlarini o'qitishd hamda tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan vositalar majmuidir.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o'qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan holler xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Texnologiyalarda ko'proq prosesual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yo'naltiruvchi tomonlari ko'proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o'zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarining turg'unligi, ko'plab “agar”lar (agar o'qituvchi iste'dodli bo'lsa, agar bolalar qobiliyatli bo'lsa, agar yaxshiot-a-onalar bo'lsa....) yo'qligi bilan farq qiladi. Ya'ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan hamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo'llash mumkinligi bilan juda ham individual bo'lgan metoddan farq qiladi.

Metod – biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat. Pedagogik texnologiya o'quv jarayoni (ya'ni o'qituvchining o'quvchining faoliyati bilan), uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko'p darajada bog'langan. Pedagogik texnologiya standartlarni to'la o'zlashtirishni, sifat darajasini kafolatidir. Pedagogik texnologiya o'quv jarayonining shunday loyihasini u bir kishi yoki biror ijodiy guruh tomonidan ishlab chiqiladi, undan barcha o'qituvchilar foydalana oladilar. O'quvchi o'qitilmaydi – uni mustaqil mutolaa qilishga o'rgatiladi. O'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmaydi, unga bilimlarni manbaalardan mustaqil o'qib olishga, fikrlay olish, mustaqil pozistiyada tura olishga o'rgatiladi. Barcha o'quvchilarni o'z qobiliyatlari, ehtiyojlari darajasida albatta o'zlashtirib olishlari kafolatlanadi.

Hozirgi kunda barcha pedagoglar singari ingliz tili o'qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Darslarni asosan muammoli o'qitish texnologiyasidan samarali foydalangan holda tashkil etish yuqori natijalarni ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan tinglovchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida tinglovchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs sub'ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir. **Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiq'i o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.**

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, tinglovchini uni yechishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy - o'quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Tahsil oluvchilarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda ma'ruzachi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, tinglovchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Shuni qat'iyatlik bilan ta'kidlash lozimki, bu yerda yangi bilimlar ma'lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni yechimi uchun beriladi. An'anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – tinglovchilar mustaqil ilmiy izlanish ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo

etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarni takrorlash bilan bog'liq bo'lgan reproduktiv, psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.

Agar inson muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so'ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a'lo darajada namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

II-BOB.INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TIL KO'NIKMALARINI O'STIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH METODIKASI

2.1. Ingliz tili darslarida zamonaviy pedtexnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirish metodi va vositalari

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Interaktiv” (interfaol)-inglizcha so'z bo'lib, “interact”- “inter”-bu o'zaro, “act”-bu “harakat qilmoq” ma'nosini anglatadi. Umumlashtirganda esa “Interaktiv” (interfaol) –“o'zaro harakat qilmoq” ma'nosini anglatadi.

Interfaolta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalarning soni va kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilarning tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, kattaguruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ularda'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari xususida

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uniasoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emostional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni **Blum taksonomiyasi** deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishini bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Bular quyidagi

belgilar hamda har bir darajaga muvofiqfe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni aytaoladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkurdarajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish,axborotni yetkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniyolish, gapirib berish, takrorlash kabilardan iboratdir.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar,qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi.Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusioqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiqfe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash,tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash,oydinlashtirishni talab etadi.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqatan'anaviy emas, noa'naviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'riqo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish,hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalgaoshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etishni namoyon qiladi.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ularo'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarniko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarningahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari:keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish,bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlashdir.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi,biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi.Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Butafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish,umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish,kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalashdan iboratdir.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ulargarioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjudma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagifarqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari:tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash,tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

An'anaviy hamda Interfaol dars orasidagi farqlar

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaoldarslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda birmavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydiganinterfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangimashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabkima'lumotlarni bilishlarinita'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchunan'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalarva o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarnio'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'siretuvchi omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalarigabog'liq omillar deb atash mumkin.Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiyta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

- 1.O'qituvchilardan interfaol mashg'ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhinitayyorlash;
- 2.O'qituvchilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;
- 3.O'quv xonasida interfaol mashg'ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;

4. Ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;
5. Sanitariya-gigiyena me'yorlari buzilishining oldini olish;
6. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;
7. Davomatni va intizomni saqlash;
8. Nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

1. DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaolusullarni to'g'ri tanlash;
2. Interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;
3. Interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;
4. Mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlarasosida belgilash;
5. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mosdarajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;
6. Interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, unitashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar belgilangan. Bunda bir mashg'ulot jarayonidamashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagichanomlanadilar:

1. Moderator – ta'lim mazmunini yaratuvchi, modullarini ishlab chiquvchi.

1. Trener—o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi

maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.

2. **Tyutor**—masofadan o'qitish dasturlarini yaratuvchisi va bajarilishini ta'minlovchi.
3. **Fasilitator**—darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.
4. **Mentor**—ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).
5. **Kouch**—ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordamko'rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliymashg'ulotni olib boradi, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi.(Kouching-imtihonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).
6. **Konsultant**—maslahat beruvchi, tushuntiruvchi, qo'shimcha ma'lumot beruvchi.
7. **Lektor**—nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.
8. **Ekspert** – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohazabildirish.
9. **Innovator**—yangiliklarni ta'lim mazmuni va mashg'ulotlar jarayoniga joriyqiluvchi.
10. **Menejer**—tashkiliy—pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etuvchi.
11. **Spekter**—kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.
12. **Assistent**—mashg'ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo'llashgatayyorlash, mashg'ulot ishtirokchilariga yordam ko'rsatib turish.
13. **Sekretar**—zarur ma'lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarnirasmiylashtirish, o'rnatilgan tartibda saqlash.
14. **Texnolog**—pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogiktexnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishnita'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etib boradi.
15. **Metodist**-ta'lim-tarbiya metodlari bo'yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlabchiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiy o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtog'larining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

2.2. Ingliz tili darslarida o'quvchilarning o'qish qobiliyatini o'stirish jarayonida zamonaviy pedtexnologiyalarni tadbqiq etishning o'ziga xos jihatlari

Ingliz tilida o'qish-nutq faoliyati turihisoblanadi. O'qish-ko'z bilan ko'rayotgan harf, harf birikmalari, so'zlar, gaplarni ovoz chiqarib, chiqarmay o'qish va o'qiganning mazmunini tushunish, o'qib ma'lumot olishdir. O'qish yozma nutqda berilgan matndan ma'lumot olish nutq turidir.

O'qish-tanish til materiallari asosida notanish mazmunli matnni o'qib ma'lumot olish, mazmunini tushunishdir. O'qish aloqa (kommunikatsiya) qilishning bir turidir. O'qish orqali o'quvchi, talaba ingliz tilida gaplashiladigan mamlakatlar tili, madaniyati, hayoti, tarixi, urf-odati bilan tanishadi. O'qish ma'lumot olish manbaidir.

O'qish kishilarning kommunikativ-ijtimoiy faoliyat sohasiga taalluqli bo'lib, unda u yozma shakldagi so'z orqali muomalani ta'minlaydi. Kishilarning turmush, ta'lim va ishlab chiqarish sohalaridagi faoliyatlarida o'qishdan keng foydalaniladi. O'qish orqali ma'lumot olish turli faoliyatlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'qishda boshqa har qanday faoliyatdagi kabi mazmun va jarayon rejaları mavjud bo'lib, birinchisiga doimo katta ahamiyat beriladi. Faoliyatning predmet mazmunini tashkil qiluvchilar o'qishning mazmun rejasi sanaladi. Faoliyat jarayonining elementlari o'qishning jarayon tomoni hisoblanadi.

Faoliyat mazmuniga, eng avvalo uning maqsadini, natijalarini kiritadilar. Odatda o'qishda faoliyat ana shu maqsadga erishishga qaratilgan bo'ladi. Mazmun aloqalarini ochish-nutq mahsulotini, ya'ni yozma shaklda taqdim qilingan matnni tushunish o'qishdagi ana shunday maqsadni tashkil qiladi.

O'qish doimo tayyor holdagi nutq axborotini idrok qilishga, ma'lumot olishga yo'nalgan bo'ladi, shuning uchun uni nutq faoliyatining retseptiv turiga kiritishadi. O'qishning o'ziga xos xususiyati shundan iborat-ki, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi haqidagi baho kitobxonning olingan ma'lumotdan qoniqish hosil qilganligida o'z ifodasini topadi.

O'qish murakkab retseptiv aqliy faoliyat hisoblanib, uning jarayon tomoni analitik-sintetik xarakterga egadir.

O'qish orqali biz ma'lumot olamiz, bilimimizni, dunyoqarashimizni kengaytiramiz, shuning uchun o'qish nutq faoliyatining turidir.

Hozirgi davrda metodika o'qishni ingliz tilini o'qitish usuli, yo'li deb qaralmay, uni til materiallarini o'zlashtirishga yordam beruvchi, uni asosida (matndan) nutqni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan material manbai, ma'lumot olish manbai deb qaralmoqda. Shu sababdan o'qiyotganda asosiy diqqat matn mazmuniga qaratiladi.

Dasturda o'qish bo'yicha umumiy talablar va har bir sinflar, kurslar uchun talablar belgilanib beriladi. O'rta maktabda o'qishni o'rgatish ham maqsad, ham vositadir, ya'ni o'qish chet tili o'rgatishda ham maqsad, ham vosita vazifasini bajaradi.

Ingliz tilida o'qish ko'nikmasini egallash o'rta maktabda, litseyda ingliz tili o'qitishdan kutilgan amaliy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Agar o'rta maktabni bitirib chiquvchilarning o'qish ko'nikmasi mukammal bo'lsa, ular o'zlari egallagan ana shu ko'nikmadan amaliy ravishda mustaqil foydalanish imkoniga ega bo'ladilar. O'qishning yetuklik darajasi har xil bo'lishi mumkin, shuning uchun o'rta maktab oldida o'qishning minimal rivojlanish darajasiga erishish vazifasi turadi.

O'qishning amaliy maqsadi o'qib ma'lumot olishdir. Amaliy maqsaddan tashqari o'qishni o'rgatish umumta'lim va tarbiyaviy maqsadlarini ham nazarda tutadi. Bulardan tashqari o'qishni o'rgatish rivojlantiruvchi maqsadni ham amalga oshiradi. O'qish paytida o'quvchi, talabaning o'rganilayotgan ingliz tili matni bilan uning kuzatuvchanligi rivojlanadi va ularning til materiali, matn mazmunini analiz va sintez qilish qobiliyatlari takomillashadi.

Endi o'qishning vosita sifatidagi vazifasi ustida to'xtalamiz. O'qish til materialini egallab olishda muhim vosita hisoblanadi. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, matnlarni o'qishni o'rgatish, lug'atni boyitish usullaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. O'qish, gapirish ko'nikmasini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'qilgan matnlarning mazmuni bo'yicha savol-javob mashqlarini bajarish, hikoya qilib berish, suhbat va muhokamalar qilishi ko'p mashqlarga asos bo'ladi. O'qish orqali gapirish uchun ma'lumot, material to'planadi. Ularni ingliz tilida gapirishga tayyorlaydi. Ovoz chiqarib o'qish esa to'g'ri talaffuzga o'rgatishdava yangi til materialini tushunishda muhim

bosqich sanaladi. Bundan tashqari ovoz chiqarib o'qish ovoz chiqarmay o'qishning yetuk ko'nikmasini shakllantirishda ham muhim vosita rolini o'ynaydi.

Demak, o'qish, o'qitish maqsadi vazifasini bajarishdan tashqari, muhim o'qitish vositasi vazifasini ham o'taydi.

O'qishni o'rgatish, rivojlantirish o'rta maktabda 2 ta bosqichda 5-6-7-8-9-sinflarda olib boriladi. Dastur talabi bo'yicha I bosqichda 5-6-sinflarda o'qish uchun mazmuni notanish matnlarning til materiallari oldindan ishlab chiqiladi, II bosqichda 7-8-9-sinflarda esa matnlardagi ba'zi til materiallarni fahmlab tushunish uchun qoldiriladi hamda dasturda 9-sinf o'quvchilarini matbuot matnlaridan, ya'ni ro'znoma, oynoma maqolalarini o'qib, ma'lumot olishga o'rgatishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'grisida"gi PQ-1875-sonli qarorida belgilangan vazifalarga ko'ra o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda 2-sinfdan amalga oshiriladi.

O'quvchi talabalarning o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qish turlarini farqlay olish va shu asosda darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish hozirgi kun talabiga mos va xosdir.

Turli tipdagi o'quv yurtlaridagi maqsad, vazifalarni hisobga olib, turlicha o'qish turlari o'tkaziladi. Metodik adabiyotlarda chet tilidagi o'qish turlari quyidagi mezonlarga ko'ra farqqilinadi: ona tilining ishtirok etishiga qarab tarjimali va tarjimasiz o'qish; analiz va sintez elementlarning nisbatiga ko'ra - analitik va sintetik o'qish; o'tkazilish joyiga qarab sinfda, auditoriyada, uyda o'qish; majburiylik darajasiga ko'ra, majburiy o'qish va yordamchi o'qish; tayyorgarlik darajasiga ko'ra, qisman tayyorlangan, to'la tayyorlangan va tayyorgarliksiz o'qish, shu bilan birga maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'yinqaroqliklarini, aqliy qobiliyatlarini, o'zlashtirish ko'rsatkichlarini hisobga olib rasmlardan va jihozlardan foydalanib o'qish kabi turlari borligi aytib o'tiladi.

Yana ko'z yugurtirib o'qish, tanishish maqsadida o'qish, ta'limiy o'qish, izlanib o'qish, sinchiklab o'qish turlari ham mavjud.

Umuman ayrim manbalarning guvohlik berishicha, faoliyat natijasiga ko'ra, 50 dan oshiq o'qish turlari bor.

Oliy o'quv yurtlarida analitik, sintetik, tarjimali, tarjimasiz o'qish turlari o'tkaziladi. Sanab o'tilgan o'qish turlari har xil natijalarni olishni maqsad qilib qo'yadi. Masalan, ko'z yugurtirib o'qish maqola yoki kitob mavzusi haqida tasavvur hosil qilishga yo'naltirilgandir. Bu ma'lumotni olish uchun sarlavha yoki kichik sarlavhaga qarash, ayrim xatboshi (abzas) yoki gaplarni tez o'qib chiqish, ya'ni maqola yoki kitobni ko'rib chiqish yetarli hisoblanadi.

Tanishish maqsadida o'qishda esa kitobxon kitob yoki maqolaning aniq mazmuni bilan tanishishga harakat qiladi. U bu paytda o'z e'tiborini asosiy ma'lumotga qaratadi. Shu boisdan bu o'qish turi matn mazmunini umumiy holda tushunib o'qish deb ham yuritiladi.

Tanishish maqsadida o'tkaziladigan o'qish turi tez maromda ravon o'qish turi sanaladi. Ta'limiy o'qish turi o'tkazilganda o'quvchi, talaba matndan ifodalangan ma'lumotni to'la, aniq tushunishga va uni tanqidiy qabul qilishga intiladi. O'quvchi, talaba olingan ma'lumotdan kengroq foydalanish ko'zda tutiladi. Shu sababli talaba, o'quvchidan matn yoki maqolani batafsil bilishi uchun obdon o'qib chiqish, ayrim joylarini esa qayta-qayta o'qib chiqish talab qilinadi.

Hozir o'rta maktabda uchta o'qish turlari mavjud.

1. Tanishuv o'qish turi;
2. Sinchiklab o'qish turi;
3. Ko'z yugurtirib o'qish turi.

Tanishuv o'qish turi uchun til materiallari jihatdan tanish va oson bo'lgan katta hajmdagi matnlar o'qish uchun olinadi. Bu o'qish turi orqali o'qib, ma'lumot olishga o'rgatishdan oldin o'qish sinfda, auditoriyada o'tkaziladi, keyin uyga ko'chiriladi. Darsda esa tushunganlik darajasi tekshiriladi. O'qituvchi tushunishni osonlashtiradigan so'z, ibora, jummalarni saralaydi, tushuntiradi, tekshirish ob'ektlarini aniqlaydi. Tanishuv o'qish turi orqali eng ko'p, 80-90% ma'lumot olishga erishiladi. O'quvchi matn mazmuni bilan tanishadi. Bu o'qish turi 6-7-8-9-sinflarda ovoz chiqarmay o'qish shakli orqali amalga oshiriladi¹⁶.

¹⁶Qodirova F. R., Qodirova R.M Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., 2006.

Sinchiklab o'qish-o'quvchi, talaba matndagi qiziqtiradigan fikrni, ma'lumotni, dalilni, topshiriqni topish maqsadida sinchiklab o'qiydi. Dalil, topshiriqlar, vazifalar o'qituvchi tomonidan oldindan berilishi mumkin. Ma'lumot ko'proq topshiriq, vazifa, dalil haqida olinadi. Matn bo'yicha umumiy ma'lumot kam olinadi. O'qish ovoz chiqarmay amalga oshiriladi, sinfda o'tkaziladi, uyda o'qilib, sinfda tekshirilishligi ham mumkin, u 7-8-9-sinflarda o'tkaziladi. Matnlar mazmuni turlicha bo'ladi. Ish butun matnga ko'z yugurtirib chiqishdan boshlanadi. Keyin matn sinchiklab o'qiladi. Tushunganlikni tekshirish mashqi sifatida eng ko'p hollarda ayrim qismlar esa ona tiliga tarjima qilinadi.

Ko'z yugurtirib o'qishda eng kam ma'lumot olinadi. Oldindan fahmlash, xulosa chiqarish, faqat kerakli ma'lumotni ko'z yugurtirib tezda topish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Topshiriqlar matn yoki maqolaning kim yoki nima haqida ekanligini tez aniqlash, biron kishi yoki joy, narsa haqida matnda yozilgan joyni tez topish kabilar bo'lishi mumkin.

Oliy o'quv yurtlarda ko'pincha analitik va sintetik (mustaqil, uyda o'qish - domashnee chtenie) turlari o'tkaziladi. Analitik o'qishda talaba matn mazmunini matndagi so'z iboralarni, qiyin abzaslarni analiz - tahlil qilish orqali tarjimasiz tushunadi, matndan ma'lumot oladi. Sintetikda esa teskarisi to'g'ridan-to'g'ri, analiz qilmay o'qib, ma'lumot olinadi.

2.3.Ingliz tili darslarini ilg'or pedtexnologiyalar asosida tashkil etish

Dars jarayonini loyihalashda o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash, ya'nimetodlarni darsning vazifalari va mazmuniga mosligi, o'qituvchi va o'quvchilarning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi talab etiladi.O'qituvchi darsning loyahasini ishlab chiqishda quyidagi topshiriqlarni ketma-ket bir butunlikda amalga oshirishi kerak.

1-bosqich: O'qituvchi dastur, darslik, metodik qo'llanma va sinf o'quvchilarining umumiy tavsifi bilan tanishib chiqishi lozim.

2-bosqich: Darsning asosiy vazifalari majmuasini: o'qitish, ta'limiy maqsad,tarbiyaviy maqsad va rivojlantiruvchi maqsadlarni va vazifalarini belgilash.

3-bosqich: Darsning asosiy bosqichlarini to'g'ri, aniq va izchillikdajoylashtirish.

4-bosqich: Darsning har bir bosqichi mazmunidagi asosiy o'rinni ajratib olish.

5-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitish metodlarini, vositalarini, texnologiyalarni tanlash.

6-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitishning yetakchi; umumsinfiy, kichik guruh va individual shaklini tanlab olish.

7-bosqich: Bo'sh o'zlashtiruvchi va tayyorgarligi kuchli bo'lgan o'quvchilar uchun tafovutlangan mashq va vazifalarni tanlash.

8-bosqich: Tegishli sinf o'quvchilari uchun vaqt me'yorlariga muvofiq uyvazifasining maqbul hajmini tanlash.

Interfaol ta'lim jarayonida kichik guruhlarda ishlash metodikasi xususida

Muammoli ta'lim jarayonida kichik guruhlar ishini tashkil etish uchun o'qituvchi quyidagilarni yaxshi tushunib olishi lozim:

1. O'quvchining individual harakatlari bilan jamoa bo'lib ishlagandagi harakatlari nimasi bilan farqlanadi?
2. Kichik guruhlarning birgalikdagi ishidan qanday natijalarni kutish mumkin?

3. Guruhning hamfikrlilar jamoasiga aylanishi uchun nimalar qilish kerak?

4. Kichik guruh va uning tarkibiga kiruvchi o'quvchining ishini qanday baholash kerak?

Guruhlar bilan ishlash bo'yicha ayrim maslahatlar:

1. Hamkorlik guruhlari kam sonli bo'lishi kerak. Guruh qanchalik kichik bo'lsa shunchalik har bir o'quvchi mas'uliyatliroq bo'ladi.

2. Har bir guruh a'zosining bilimini individual tartibda tekshirish lozim.

3. Davriy tartibda tanlab (oralatib) og'zaki so'rovlar o'tkazish foydali, bunday paytda o'quvchilar guruh a'zolari yoki butun sinf oldida guruh ishi haqidagi gapirib beradilar.

4. Barcha guruhlar ishini kuzatib borish va guruh a'zosining umumiy mehnatda ishtirok etgan hamma holatlarini qayd etish kerak.

5. Har bir guruhda «nazoratchi» bo'lishi kerak, u har bir guruhdoshidan nima uchun guruh berilgan savolga boshqacha emas, aynan shunday javob berganligini tushuntirib berishni so'rashi mumkin.

1. Interfaol metodlar: "Muammoli vaziyat" metodi

"Muammoli vaziyat" metodi ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sababini va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimlarini topish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan metod.

"Muammoli vaziyat" metodining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

- muammoli vaziyat tavsifini keltirish;

- o'quvchilarni guruhlarga bo'lish;

- guruhlar muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlashi;

- guruhlarning muammoli vaziyatni oqibatlari to'g'risidagi fikrlarini jamlanish bosqichi;

- guruhlarni muammoli vaziyatni yechimini ishlab chiqish bosqichi;

-to'g'ri yechimlarni tanlash bosqichi;

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi o'quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. O'quvchilar qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishi kerak, chunki muammoni yechimini topa olmasa o'quvchilarning qiziqishlari so'nishi va bolalar o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishi mumkin. Dars jarayonida ushbu metoddan foydalanganda o'quvchilar mustaqil fikr yuritishga, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga, uning yechimini topishga o'rganadilar.

Quyida yangi pedtexnologiyalar va ta'lim vositalari ilg'or tadbiq qilingan dars ishlanmalaridan na'munalar keltirishga qaror qildik.

1. O'quv materialini muammoli bayon etish – ma'ruzaviy mashg'ulotlarda monolog tarzda, seminar mashg'ulotlarida esa dialog tarzda olib boriladi. Ma'ruzachi ma'ruza paytida o'quv materialini bayon etayotganida muammoli masalalar tuzadi va ularni o'zi yechadi, tinglovchilar esa yechimlarni izlash jarayoniga faqat xayolan qo'shiladilar. Masalan, «O'simliklar hayoti haqida» mavzusidagi ma'ruzaning boshida «Nega ildiz va tana qarama - qarshi tomonlarga o'sadi?» degan muammo qo'yiladi, ammo ma'ruzachi tayyor javobni bermaydi, u fanning bu haqiqatga qanday yetib kelgani, bu hodisa sabablari haqidagi farazlarni tekshirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar haqida hikoya qiladi.

2. Qisman izlanuvchan faoliyat tajribalar, laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli seminarlar, evristik suhbatlar davomida namoyon bo'ladi. Ma'ruzachi muammoli savollar tizimini tuzadi, bu savollarga javoblar olingan bilimlar bazasiga tayanadi, ammo ular oldingi bilimlarda mavjud emas, ya'ni savollar tahsil oluvchilarga intellektual qiyinchiliklar tug'diradi va maqsadga yo'naltirilgan ijodiy izlanishga undaydi. Ma'ruzachi imkoni boricha «boshqacha javoblar» yo'naltiruvchi savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, u tahsil oluvchilar javoblariga tayanib, yakuniy xulosa qiladi. Qisman izlanish usuli, 3 va 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (foydalanish, ijod) va bilimlarni 3 va 4-darajasini bilim-ko'nikma, bilim-transformatsiya (qayta shakllanish)

ta'minlaydi. An'anaviy tushuntirish va reproduktiv o'qitishga esa, bilim-tanishi va bilim-nusxa shakllanadi, xolos.

3. *Mustaqil tadqiqot faoliyatida* tahsil oluvchilar mustaqil ravishda muammoni ifoda etadilar va uni yechadilar (kurs yoki bitiruv ishlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida) va ma'ruzachi nazorati bilan yakunlanadi, bu esa 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (ijod) va 4-darajali eng samarali, mustahkam bilimni (bilim-qayta shakllanish) egallashni ta'minlaydi.

Tabaqalashtirib o'qitish texnologiyasi haqida

Tabaqalashtirib o'qitish o'quv jarayonini tashkil etishning shakli sifatida umumiy didaktika prinsiplariga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan tahsil oluvchilarning gomogen guruhlarida, o'quv jarayonini ixtisoslashtirishni ta'minlaydi

O'qitishni tabaqalashtirish – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

O'qitishning eng yuqori oliy pog'onasi individual o'qitish hisoblanadi

Oliyva o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida gomogen guruhlar, tahsil oluvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, avvalo aqliy rivojlanish darajasi asosida tuziladi.

Umumta'lim maktablarida, akademik listeylarda va kasb-hunar kollejlarda tahsil oluvchilarning aqliy rivojlanish darajasi bo'yicha tabaqalashning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham mavjud bo'ladi. Oliy maktab uchun esa bu o'qitish tizimiga hech qanday shak-shubha yo'q. Hozirgi paytda oliy o'quv yurtlariga kiruvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi 100 % dan 25 % gacha tashkil etadi. Bunday sharoitda davlat ta'lim standartlari talabiga mos oliy malakali kadrlar tayyorlash maqsadida o'qitishni tabaqalashtirish davr taqozosidir.

Yakka tartibda o'qitish texnologiyasi

Tahsil oluvchining mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishini ta'minlash, zamonaviy o'quv jarayoniga qo'yiladigan jadallashgan ilmiy-texnikaviy

taraqqiyotining talabidir. Bunga individual va individuallashtirilgan o'qitish orqali erishish mumkin.

Individual o'qitish – bu o'quv jarayonining tashkil etishning shakli bo'lib, bunda pedagog tahsil oluvchilar bilan yakkama-yakka shug'ullanadi, tahsil oluvchi o'quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil ta'lim oladi.

Individual o'qitishning afzalliklari: pedagogik jarayonning tahsil oluvchi qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda tahsil oluvchining bilim olish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirish va zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida maqbul pedagogik jarayon tashkil etiladi

Individual yondashish – bu pedagogik prinsipga ko'ra, pedagogik jarayonda pedagogning tahsil oluvchilar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida tahsil oluvchining rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Individuallashtirilgan o'qitish bunday o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari, sur'ati tanlanadi va turli o'quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanadi.

Yakka tartibda o'qitish texnologiyasi – bunda o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish va o'qitishning individual shakli ustuvor hisoblanadi. O'qitishning barcha shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarida u yoki bu darajada individual yondashish qo'llaniladi, ammo individuallashtirilgan o'qitishda, individuallashtirish, o'quv maqsadlariga erishishning asosiy vositasi hisoblanadi. Individuallashtirilgan o'qitishning asosi, tahsil oluvchining individual-pedagogik xususiyatlarini o'rnatish hisoblanadi. Olingan natijalar asosida, o'qitish usuli tanlanadi. Qabul qilingan texnologiyalar, qoidalar va prinsiplarga ko'ra o'qitish jarayoni amalga oshiriladi.

Uzluksiz teskari aloqa va o'quv maqsadlarga erishilganligini baholashni ta'minlash majburiy hisoblanadi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharoitida, xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro aloqalar rivojlanayotgan hozirgi davrda buyuk kelajagimizning vorislari bo'lmish yosh avlodga, jumladan, maktab o'quvchilariga ingliz tilidan ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularning bilish faolligini oshirish orqali ravon nutqini ta'minlash, buning uchun ingliz tili o'qituvchilari malakasini ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida oshirish vazifasi paydo bo'ldi.

Mazkur BMI da ilg'or pedagogik texnologiyalarni darslarga tadbiiq etish samaradorligini ta'minlovchi vosita, usul va metodlarni nazariy va amaliy jihatdan isbotlashga harakat qilindi. Ingliz tili darslarida maktab o'quvchilarining bilish faolligi va qiziqishini oshirishga xizmat qiladigan turli xil pedtexnologiyalar, ko'plab Interfaol usullarni qo'llash va ularning ijobiy natijalari ilmiy jihatdan asoslandi.

Faollik o'quvchi faoliyatining muhim belgisi bo'lib, bilish jarayoni uning qay darajada namoyon bo'lishiga bog'liq. Faollik darajasi, birinchidan, o'quvchida bilishga qiziqish, qat'iylik, mustaqillik kabi xususiyatlarning mavjudligi bilan belgilansa, ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini faollashtirish maqsadida yaratilgan shart-sharoit, tanlangan vositalarning samaradorligi bilan o'lchanadi.

Xullas, ingliz tili darslarida maktab o'quvchilarining bilish faolligini oshirish yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz quyidagi xulosalarga olib keldi:

Talabalarning faolligini oshirishga muvaffaqiyatli ravishda erishish va amalga tatbiiq etish ikki yoqlama jarayon bo'lib, u ham o'qituvchi, ham o'quvchi faoliyati bilan bog'liq.

I. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan talablar:

1. Ingliz tili o'qituvchisi o'quvchilarning muayyan shart-sharoitlari darajasini bilsagina, ularning bilish faolligini oshirishga erisha oladi. Buning uchun o'quvchilarning til materiallari va nutq faoliyati turlarini o'zlashtirib olishlari va ularni og'zaki nutqda qo'llashlari, o'qilgan yoki tinglangan matn yuzasidan muhokamalar o'tkaza bilishlari, ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni osonlikcha bajarishlari zarur.

2. Ingliz tili darslarida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga erishish uchun o'qituvchi muayyan shart-sharoitlarni vujudga keltirishi kerak. Ingliz tilini bilishga bo'lgan motiv(ichki turtki)larni tarbiyalash, o'quvchilarni zarur bo'lgan logik-lingvistik

operatsiyalar bilan qurollantirish, ta'limning eng maqbul usullarini ishga solish ana shu shart-sharoitlar jumlasiga kiradi.

3. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish o'qituvchi tomonidan qator metodik omillarni ham ishga solishni taqozo etadi. Ingliz tili darslarida ta'limning eng samarali metodini tanlash, muammoli ta'lim imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish, o'quvchilarning turli sharoitlarda ravon nutq yuritishini ta'minlash, o'qish va tinglab tushunish malakasini hosil qilish, til materialini orqali o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish imkoniyatlarini izlash va ulardan foydalanish kabilar faollik prinsipini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'qituvchi amalga oshirishi zarur bo'lgan bu tadbirlar o'quvchining fikrlashi, til hodisalarining mohiyatini anglashi, ijodiy faoliyat ko'rsatishiga zamin yaratadi.

II. O'quvchilar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan talablar:

1. Ta'lim jarayoni faqat o'qituvchi tomonidan boshqariladigan jarayon emas, u o'quvchilar faoliyati bilan ham chambarchas bog'langan. O'quvchining o'z-o'zini boshqarishi natijasida o'quv jarayoni faollashadi. Ingliz tili darslarida o'quvchining o'z nutqini o'zi nazorat qilishi, yo'l qo'ygan xatolarini o'zi aniqlashi va bartaraf etishi, mustaqil holda xulosalar chiqarishi, reproduktiv, qisman izlanuvchanlik va ijodiy topshiriqlarni bajarishda ishtirok etishi o'quvchi faolligini oshirdi va uni amalga tatbiq etilishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

2. O'z faoliyatini o'zi boshqarishga erishish uchun o'quvchi ingliz tilidan dasturiy bilimlarga ega bo'lishi, til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Mazkur BMI da hozirgi zamon o'rta ta'limda ingliz tili darslarida o'quvchilarning chet tilidan o'qitish jarayonlarini tashkil qilishning nutqiy ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi vosita va usullar metodikasi bayon qilindi. Uning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan qoidalar va metodik tavsiyalar ingliz tili darslarida maktab o'quvchilarining bilish faolligini oshirish va ularning nutqini o'stirishga asoslangan o'quv reja, dastur va shular asosida darslik ishlab chiqishga asos bo'ladi. Tavsiya etilgan tadbirlarning shakli va mazmuni hamda ularni amalga oshirish metodlarining maqsadga muvofiq ekanligi o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida o'z tasdig'ini topdi.

NDPI xorijiy tillar fakulteti Ingliz tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Jo'raqulova Gulhayoning "Ilg'or pedagogik texnologiyalarni va ta'lim vositalarini ingliz tili darslariga tadbiq etish" mavzusida yozgan malakaviy bitiruv ishiga ilmiy rahbar

XULOSASI

Faollik o'quvchi faoliyatining muhim belgisi bo'lib, bilish jarayoni uning qay darajada namoyon bo'lishiga bog'liq. Faollik darajasi, birinchidan, o'quvchida bilishga qiziqish, qat'iylik, mustaqillik kabi xususiyatlarning mavjudligi bilan belgilansa, ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini faollashtirish maqsadida yaratilgan shart-sharoit, tanlangan vositalarning samaradorligi bilan o'lchanadi.

Ingliz tili darslarida maktab o'quvchilarining bilish faolligini oshirish yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz quyidagi xulosalarga olib keldi:

Talabalarning faolligini oshirishga muvaffaqiyatli ravishda erishish va amalga tatbiq etish ikki yoqlama jarayon bo'lib, u ham o'qituvchi, ham o'quvchi faoliyati bilan bog'liq.

Tadqiqotchi talaba hozirgi zamon o'rta ta'limda ingliz tili darslarida o'quvchilarning chet tilidan o'qitish jarayonlarini tashkil qilishning nutqiy ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi vosita va usullar metodikasi bayon qilgan. Uning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan qoidalar va metodik tavsiyalar ingliz tili darslarida maktab o'quvchilarining bilish faolligini oshirish va ularning nutqini o'stirishga asoslangan o'quv reja, dastur va shular asosida darslik ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, II bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi, vazifasi, metodologik asosi, nazariy va amaliy ahamiyati, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti va metodi hamda ishning tuzilishi aks ettirilgan.

Bitiruv malakaviy ishi yaxshi va to'liq bajarilgan. Uni DAKga himoya uchun tavsiya etsa bo'ladi.

Ilmiy rahbar:

D.X.Zoyirova

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov «O`zbekiston XXI asr bo'sag`asida xafsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T. «O`zbekiston» 2000 y
2. I.A.Karimov «Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori» T. «Sharq», 2001y.
3. O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risidagi» Qonuni T. 2002y.
4. O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T. 2001y.
5. Zaripova F.A.«Chet tillar o`qitish metodikasidan qo'llanma» Toshkent 2002y.
6. Hoshimov O'.H.,.Yokubov I.YA «Ingliz tili o`qitish metodikasi» Toshkent 2003y.
7. Maley, Drama Techniques: a resource book of communication activities Alan CUP 2005
8. Maley & Duff CUP Drama Techniques in Language Learning 1978 represented 2002.
9. Lee,WR OUP Language Teaching Games & Contests, 2004
10. Jalolov J.J. Chet tili o`qitish metodikasi: Chet tillar oily o`quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. –T.: O`qituvchi, 2002.
11. Gurrey P., Teaching English as a Foreign Language, L., 2001.
12. Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку (на англ. яз.): Учебное пособие. –Л.: Просвещение, 2000.
13. Рогова Г.Б., Рабинович Ф.М., Сахарова Т.Е. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. –М.: Просвещение, 2001.
14. Saydaliyev S.S. Chettilio`qitish metodikasidan ocherklar: O`qituvchiva talabalar uchun qo'llanma. –Namangan: NamDU, 2004.
15. Douglas Brown., Teaching by principles. Pearson. Longman, 2010
16. Penny Ur. A course in Language Teaching. Cambridge University Press.
17. Lakoff R. Language and Womans's Place. - New York: Harper Colophon Books,

2000.

18. Muminov.O.M. Translation. Toshkent, “VEKTOR-PRESS”, 2008-y
19. Qodirova F. R., Qodirova R.M Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., 2006.
20. Qodirova F. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o`rgatishning lingvodidaktik muammolari. J., “Pedagogik ta`lim” , 2002, N2.
21. Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqini rivojlantirishning psixologik omillari. Sariyog`och, 2001.
22. R Dale [2001] Generating Recipes: An Overview of Epicure. In R Dale, C Mellish and M Zock (eds), *Current Research in Natural Language Generation*. Academic Press.
23. B Grosz and C Sidner [2007] Attention, Intentions and the Structure of Discourse. *Computational Linguistics*.
24. E Hovy [2009] Parsimonious and Profligate Approaches to the Question of Discourse Structure Relations. In *Proceedings of the Fifth International Natural Language Generation Workshop*, Dawson, Pennsylvania.
25. E Hovy and Y Arens [2001] Automatic Generation of Formatted Text. In *Proceedings of AAAI-91*.
26. G Nunberg [2000] *The Linguistics of Punctuation*. CslI Lecture Notes No. 18, University of Chicago Press.
27. Richards, Jack C.; Rodgers, Theodore S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching* (2nd ed.). Cambridge, New York: Cambridge University Press..TPR Storytelling.<http://www.tprstorytelling.com/>
28. Cook, Vivian (2008). *Second Language Learning and Language Teaching*. London: Hodder Education. Larsen-Freeman, Diane (2000). *Techniques and Principles in Language Teaching* (2nd).Oxford University Press.
29. Fries CH. Teaching and Learning English as a Foreign Language. Ann Arbor, 2011.
30. Hoshimov U., Yoqubov I. Ingliz tili o`qitish metodikasi. T.2003
31. Sattorov T. Bo`lajak chet tili o`qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. T.2003.

Internet resources:

1. [www. teachingenglish.org.uk](http://www.teachingenglish.org.uk)
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. www.developreading.com
6. www.teachingenglish.org.uk/think
7. www.teachingenglish.org.uk/try
8. www.macmillanenglish.com